

Umumta'lim maktabning 2024-2025 o'quv yili 7-sinf o'quvchilarining fizika fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti

I ChSB (fizika) DEMO

1. Agar jismning tezlik va tezlanish vektori istalgan paytda o'zaro to'g'ri burchak hosil qilsa, jism qanday harakatda bo'ladi? (bilish – 2 ball)

- A) tinch turadi B) aylana bo'ylab tekis
C) to'g'ri chiziqli tekis D) to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan

2. Velosiped g'ildiragi 0,5 minutda 60 marta aylamadi. Aylanish chastotasini (Hz) toping. (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

3. Agar avtomobil g'ildiragi eng yuqori nuqtasining yerga nisbatan tezligi 72 m/s bo'lsa, avtomobilning tezligi qanday (m/s)? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 72 B) 36 C) 18 D) 144

4. Jism zichligining SI dagi birligi nima? (bilish – 2 ball)

- A) kg/m B) kg/m² C) kg/m³ D) kg·m


5. Vaqt o'tishi bilan jismning fazodagi vaziyatining boshqa jismlarga nisbatan o'zgarishi jismning ... deb ataladi. (bilish – 2 ball)

- A) ko'chishi B) trayektoriyasi C) yo'li D) mexanik harakati

6. Zichligi 19,3 g/cm³ bo'lgan oltinning hajmi 40 cm³ ga teng. Uning massasini toping (kg) (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 0,772 B) 0,121 C) 1,415 D) 2,01

7. Rasmda bir xil massali turli xil suyuqliklar: suv, moy va simob solingan uchta idish tasvirlangan. Moy qaysi idishda ekanligini aniqlang. (qo'llash – 2,8 ball)



- A) 1 B) 2 C) 3 D) aniqlab bo'lmaydi

8. Jism 2 sekunda 20 metr masofa bosganida o'rtacha tezligi (km/h) qanday bo'ladi? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 18 B) 27 C) 36 D) 45

9. Havo shari yerdan 80 m balandlikka vertikal ko'tarilgach, shamol uni g'arbga tomon muayyan masofaga eltdi. Agar havo sharining ko'chishi 100 m bo'lsa, uning o'tgan yo'li qanday (m)? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 140 B) 60 C) 20 D) 180

10. Sportchi uzunligi 400 m bo'lgan stadionni ikki marta to'liq aylanib chiqdi va boshlang'ich joyiga qaytib keldi. Uning ko'chishi modulini toping. **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 400 m B) 800 m C) 0 D) 200 m

11. Yer sharida olingan nuqta 5 soatda necha gradusga buriladi? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 15 B) 45 C) 75 D) 90

12. Mexanika bo'limidagi BXS (birliklarning xalqaro sistemasi) ga kirgan asosiy birlikni ko'rsating. **(bilish – 2 ball)**

- A) kilometr, km B) soat, h C) nyuton, N D) kilogramm, kg


13. Mashina dovonga ko'tarilishda 15 m/s, tushishda 20 m/s tezlik bilan harakatlandi. Tushish yo'li chiqish yo'lidan 2 marta uzun bo'lsa, mashinaning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligi necha m/s bo'lgan? **(mulohaza – 4 ball)**

- A) 15 B) 16 C) 17 D) 18

14. Jism koordinatalari (2; 11) bo'lgan nuqtadan koordinatalari (9; 35) bo'lgan nuqtaga ko'chdi. Uning ko'chishining OY o'qidagi proyeksiyasi qanday (m)? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 7 B) 2 C) 33 D) 24

15. Rasmda bola bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi berilgan. Bolaning $t = 5$ s vaqtda bosib o'tgan yo'lini aniqlang. **(qo'llash – 2,8 ball)**



- A) 10 B) 15 C) 20 D) 25